

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

SURXONDARYO VILOYATIDAGI O'SIMLIK BILAN BOG'LIQ JOY NOMLARI

Jurayev Erali Xoliyar o'g'li

Termiz shahridagi Prezident maktabi geografiya fani o'qituvchisi

eralijurayev0615@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda Surxondaryo viloyatidagi kelib chiqishiga ko'ra o'simliklar bilan bog'liq joy nomlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Unda biz Surxondaryo viloyatining joy nomlari xususiyatlari, shakllanishi, hozirgi holati haqida ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Viloyatda ko'plab joy nomlari o'simlik bilan bevosita bog'liq ekaniga guvoh bo'lasiz.

Kalit so'zlar: o'simlik, daraxt, tuman, joy, qishloq, nom, qo'shimcha.

KIRISH: Viloyatimiz tabiatni boy, turli-tuman o'simliklar, giyohlar o'sadigan buyuk muqaddas vohadir. Shu sababli Surxon vohasida Andizli, Boytut, Bog'chorbog', Gujumli, Chim, Chorbog' kabi nomlarda aks etgan. O'simliklarga bog'liq holda paydo bo'lgan joy nomlari fitotoponim ham deyiladi, mamlakatimizda, shu jumladan Surxondaryo viloyatida ham, boshqa mamlakatlarda ham bunday nomlar ko'p uchraydi.

O'simliklar bilan bog'liq nomlar ba'zan aniq miqdorini bildiradi. O'rikzor, Bodomzor, Chilonzor, Terakzor, Qatortol nomlari o'sha joylarda shu tur o'simliklarning ko'p tarqalganligini bildirsa, Yakkatut, Qo'shchinor, Qo'shtut kabi nomlar bu tur o'simliklar kamligini bildiradi. Yong'oq, Ko'kterak, Archaqishloq kabi nomlarda noaniqlik bor. Shu joyda yong'oq bittami yoki ko'pmi, aniq emas.

Surxondaryo viloyati fitotoponimlarini daraxt yoki o'simliklarning turiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. O'simlik nomlari bilan atalgan turarjoy nomlari: Qorayantoq (Jarqo'rg'on. t.), Andizli (Boysun va Sherobod t.), Pudinali (Boysun t.), Sholikor (Muzrabot t.), Qizilqiyoy (Jarqo'rg'on. t.), Gulzor (Angor t.) Cho'kirli (Qumqo'rg'on t.), kabi.

2. Daraxt nomlari bilan atalgan turarjoy nomlari: bu kabi joy nomlarini tarkibida qayrag'och, chinor, tol, terak kabi daraxt turini belgilovchi qo'shimchalar ko'rsatiladi. Jumladan, A.Mevasiz yoki manzarali daraxt nomlari bilan atalgan turarjoy nomlari: -qayrag'och so'zi bilan: Qo'shqayrag'och, (Sariosiyo. t.), -tol so'zi bilan : Beshtol (Boysun. t.), Yakkatol (Boysun t.), Majnuntol (Uzun t.),

-chinor so'zi bilan :Chinor (Sariosiyo t.) Chinor (Qiziriq t.), Mingchinor (Oltinsoy t.),

-terak so'zi bilan : Yakka terak (Qiziriq t.), Terak (Uzun t.),

B. Mevali daraxt nomlari bilan atalgan turarjoy nomlari:

O'z navbatida mevali daraxt nomlarini meva turiga qarab ham guruhlarga ajratish mumkin. Masalan,

-jiyda so'zi: Jiydali (Denov t., Qumqo'rg'on t.), Chilonzor (Boysun t.), kabilar.

-tut so'zi: Qoratut (Sherobod t.), Yakkatut (Boysun va Oltinsoy t.), Tutak (Sariosiyo t.) Shotut (Uzun t.) singarilar.

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

-pista so‘zi: Pistomozor (Sho‘rchi t.), Qulpista (Sariosiyo t.)

-anor so‘zi: Anorbuloq (Boysun t.)

-olma so‘zi: Sebzor (Denov t.), Qizil olma (Muzrabot t.), Olmazor (Sariosiyo va Oltinsoy t.), Qizilolma (Sherobod t.),

-uzum so‘zi: Uzumzor (Oltinsoy t.),

-bodom so‘zi: Debodom (Sariosiyo t.) singarilar.

Surxondaryo viloyati fitotoponimlarini tahlil qilganda mazkur hududda –li, lik, –zor qo‘sishchalari orqali shakllangan toponimlarni ko‘rish mumkin. Grammatik jihatdan –li, lik, –zor qo‘sishchalari orqali shakllangan joy nomlari ham o‘simlik turining ma’lum o‘simlik turining miqdorini bildiradi. Masalan, Tutak, Jiydali, Olmazor, Uzumzor, Tolli kabi. O‘simliklar bilan bog‘liq joy nomlari mikrotoponimlarda ya’ni, kichik hududlar nomlarida ko‘p uchraydi. Viloyatdagi Chilonzor, Jiydali, Bodomzor, Olchazar, Olchabuloq, Tolli, Ettiterak shular jumlasidandir.

Dibodom—Sariosiyo tumanidagi qishloq Xufar qishloq fuqarolar yig‘iniga qaraydi. Joy nomi fors tilidan olingan bo‘lib, deh+i+bodom ya’ni, bodom o‘sadigan qishloq ma’nosida bo‘lib, shu joyda bodom daraxtining ko‘pligiga ishoradir.

Jinjak—Jarqo‘rg‘on tumanidagi qishloq nomi. Katta Jinjak va Kichik Jinjak tarzida ikkiga bo‘lingan. Jinjak—dukkakli, mayda tikanli, ko‘p yillik cho‘l o‘simligi bo‘lib, mazkur o‘simlik ko‘p uchraydigan joyda bunyod etilgan qishloq shunday nomlangan.

Ispandi—Sherobod tumani Qulluqsho qishlog‘idagi joy nomi. Ispan—isiriq o‘simgilining mahalliy nomi.

Luqluq—Boysun tumanidagi joy nomi. Aslida Luxlik bo‘lishi kerak. Lux (qo‘g‘a).-luq -liq qo‘sishchasinining varianti Lux o‘simligi o‘sgan joy deganidir.

Marmin—Oltinsoy tumanidagi qishloq nomi. Qadimiy eroniylardan tillarga mansub bo‘lib, mar+min so‘g‘dcha mar<marg‘qo‘t, o‘tloq, yaylov deganidir. Yag‘nob tilida marg‘-o‘t, chorva ozuqasi. Forscha marg‘—o‘t, alaf; o‘tzor, yaylov.

Pidana—Boysun tumanidagi joy nomi. Turkiy-pidana «yalpiz», forscha pex-«keg, katta» va Dana—«ombor, istehkom» ma’nosidadir. Pudinali— Boysun tumanida joylashgan qishloq nomi. Surxondaryo viloyatlarining bir qancha joylarida yalpiz pidana (forscha talaffuzda pudina) deyiladi.

Tolli—Sho‘rchi tumanidagi turkiy—tol-daraxt «tol bor joy» deganidir.

Yakkatol—Boysun tumanidagi qishloq (Qo‘rg‘oncha)nomi. Bittayu bitta tol daraxti ko‘kargan joy.

Qoratut—Sherobod tumanidagi qishloq nomi. Qora—tut mevasining rangi. Bunday mevali tutni xalq shotut ham deydi. So‘g‘d tilida shov (tut)—qora. Oqtut—qoratut mevasining rangiga ko‘ra farqlanadigan bir xil daraxt, qoratutning mevasi kamroq bo‘ladi. Tut daraxtining turi nomi (qoratut) joy, qishloq nomlariga aylangan.

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmadaliyev Y.I. Toponimika va geografik terminshunoslik. – Farg‘ona, 2018
2. Суперанская А.В. Что такое топонимика? М.: Наука, 1984.
3. Do’simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1977.
4. Hasanov H,H. Geografik nomlar imlosi. –Toshkent: Fan, 1962.
5. Hakimov Q. Toponimika darslik. –T.: Mumtoz so‘z, 2016. 386-b.
6. Jurayev E.X. Names of geographical places related to professions in Surkhandarya region. Golden Brain, 1(2), 187-192. 2023. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7555851> .
7. Jurayev E.X. Is learning place names into grouphs the most important task. Scholar, 1(1), 22-28. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548612> .
8. Jurayev Erali, & Muzropov Sherzod. (2022). QUMQO‘RG‘ON QUMDAN QILINGAN QO‘RG‘ONMI?. RESEARCH AND EDUCATION, 1(2), 198–204. <https://zenodo.org/record/6595279#.YpZC1B4Sw0M> .
9. Mirakmalov M.T. Geografiyada toponimika. – T.: 2008. -80-b.
10. Nafasov T. Surxondaryo toponimiyasi. TerDU xabarlari, 2009.